# Mazmundor umr ibrati

Hayot ma’nosi insonning kasbiga sadoqat, yurtiga va oilasiga muhabbat tuyg‘ulari bilan uyg‘un bo‘ladi. Muborak yoshni qarshilashda davra ahli, jamoadosh va kasbdosh do‘stlarining iltifoti va ehtiromini qay darajada ekanini bilish muhim. Umr mazmunini ilm va ta’lim bog‘lagan insonlar institutimizda ko‘p. Ana shulardan biri haqida gapirish biz uchun faxrlidir! Institutimizning “Gidravlika va gidroinformatika” kafedrasi dotsenti t.f.n. Isakov Xolmatjon Xoshimovich muborak 70 yoshni qarshiladilar. Institut rahbariyati, kasaba uyushmasi va kafedra jamoasi ustozni muborak yoshlari bilan qutlashdi.

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**